

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

**«ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDAGI OLMOSHLAR
TARJIMASI»**

MAVZUIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Filologiya va tillarni o‘qitish
(nemis tili)» ta'lim yo‘nalishi bitiruvchi 4-
kurs talabasi **Abdubannaeva Shahnoza**

Rahbar: (darajasi, unvoni, FISH).

Sadiqov Zohid, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi. Kafedraning__ sonli bayonnomasi.
«__» _____ 2019 yil.

Namangan – 2019

MUNDARIJA

Kirish

1-bob. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi to'g'risida.

1.1. Abdulla Qahhor tarjimai holi.

1.2. Abdulla Qahhorning original ijodi va tarjimonlik faoliyati haqidai.

2-bob. Abdulla Qahhor asarlarining o'ziga xosligi va tarjimalari xususida.

2.1. Nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning xususiyatlari.

2.2. Abdulla Qahhor asarlaridagi olmoshlardan foydalanish masalasi.

3-bob. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi olmoshlar tarjimasi.

3.1. Kishilik olmoshklari tarjimasi

3.2. Egalik olmoshlari tarjimasi.

Hulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Malakaviy ish mavzusining dolyarbligi. Nemis-o'zbek tillari va adaboyotlarini o'zaro qiyoslashda, ularning mushtarak va farq qiluvchi jihatlarini aniqlashda tarjimaning roli kata. Biy nemis tilini o'rganar ekanmiz ko'z oldimizga, yani chet tili o'rganuvchi o'ybek o'quvchisi yoki talabasi avvalo ona tili, o'zbek tilining grammatikasi, so'zlarning o'yaro bog'lanishni tasavvur qiladi. Bu tabiiy, albatta. Nemis tili bilan o'zbek tili, qolaversa har ikki til adabiyoti ham bir-biridan ham qarindoshlik jihatidan, ham hududiy tomondan ham uyoq ekanligini bilamiz. Ammo davr talablaridan jelib chiqib har ikki til va adaboyot sohiblari o'zaro muloqot qilib kelayotganliklari ham haqiqat. Ana shu jihatdan qaraganda o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodini nemischa tarjimalarida aks etgan olmoshlarni gayta yaratish masalasini o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Malakaviy ishimozning asosiy maqsadi XX asrdagi taniqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodini nemischa tarjimalarida aks etgan olmoshlarni gayta yaratish masalasini o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Abdulla Qahhor hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot berish;
- Abdulla Qahhorning original ijodi va tarjimonlik faoliyati organish;
- Abdulla Qahhor asarlarining o'ziga xosligi va tarjimalari o'ziga xosligini organish;
- nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning xususiyatlarini o'rganish;
- Abdulla Qahhor asarlaridagi olmoshlardan foydalanish masalasni tahlil qilish;
- Abdulla Qahhor hikoyalaridagi olmoshlar tarjimasini o'rganish;
- kishilik olmoshklari tarjimasini tahlil qilish;
- Egalik olmoshlari tarjimasini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti va predmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishning asosiy obyekti Abdulla Qahhorning hikoyalari va ularning Oybek Ostonov tarjimasidagi nemis tilidagi nashridan iborat. Ishning predmeti esa, nemis-o'zbek tilaridagi olmoshlar to'g'risidagi nazariy tadqiqotlardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati. Mazkur ishning ahamiyati shundaki, unda o'zbek tilidagi olmoshlarning nemis tiliga tarjima qilish masalasi Abdulla Qahhor asarlari misolida tahlil qilindi. Ishda hikoya janrida badiiy maqsadlarda foydalanilgan o'zbek olmoshlarini lisoniy va hududiy jihatdan uzoq bo'lgan nemis tiliga tarjima qilishning o'ziga xosliklari ko'rsatib berildi. Mazkur malakaviy ishdan kelajakda o'zbek-nemis olmoshlarini o'zaro qiyoslashga oid mustaqil ishlar, kurs ishlari, malakaviy ishlarni tayyorlashda metodik jihatdan foydalanish mumkin.

Ishning tuzulishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 bobdan iborat asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Asosiy qism

1-bob. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi to'g'risida.

1.1.Abdulla Qahhor tarjimai holi.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek nasriy adabizotining atoqli arboblardan hisoblanadi. U O'zbekiston xalq yozuvchisi unovniga sazovor bo'lgan. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyoti va san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan zoyuvchi bo'lib, o'z asarlarida o'zbek xalqining turmushi, insonning ichki va ruhiy holati to'g'risida o'ayiga xos bo'algan asarlar yarata oldi. Abdulla Qahhor XX asr o'zbek nasrining ilg'or zoyuvchilari qatoridan mustahkam o'rin olish bilan birgalikda Jahon adabiyotidan qator asarlarni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima ham qildi. U adabiyotga shoir sifatida kirib kelganligi ham tog'ri, biroq keyinchalik ko'proq hikoyanavis sifatida shuhrat qozondi va ulkan adib bo'libgina qolmay, publitsist, qissa va romannavis, satirik komeiya va lirik dramaturg, jurnalist va tarjimon hamda so'z san'atkoriga aylana oldi.

Buzuk zoyuvchi adib, tarjimon va munaqqid Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan zabardast qalamkashligini aztdik. Uning hikoya va ocherklari, qissa va romanlari, satirik komediya va lirik dramalari xalqimizning ma'naviy xazinasidan munosib o'rin olganligi haqida adabiz tanqidchilarimizdan Ozod SHarafiddinov alohida ta'kidlab yozadi.

XX asr o'zbek adabiyoti, nasriy jarn taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Abdulla Qahhor 1907 yilning 17 sentyabrida Qo'qon shahrida temirchi oilasida tavallud topgan. U tug'ilib o'sgan oila mashaqqatli hayot dahshatlarini boshidan kechirgan. Otasi Abduqahhor Jalilov temirchilik bilan kun ko'rgan. Oila tirikchilik tufayli Qo'qon atrof qishloqlarini kezib, ko'chib yurganlari ham haqiqat. Abdulla Qahhorning bolaligi Yaypan, Nursun, Nudosh, Buvaydo, Tolik, Olqor kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechganligi aytiladi.

Abdulla Qahhor o'smirlik pallasida, to'g'rirog'i 10 yoshga kirganda Buvaydodagi eski maktabga o'qishga boradi, ya'ni Oqqo'rg'on qishlog'idagi Mamajon qorining usuli savtiya maktabida tahsil oladi. Oilasi Qo'qonga ko'chib kelgach "Istiqlol" nomli maktabda o'qishni davom ettiradi, undan internat, "Kommuna", "Namuna" maktablarida, so'ng bilim yurtida tahsil ko'radi. U bilim yurtining "Adib" qo'lyozma jurnalida dastlabki mashqlari bilan qatnashadi. Toshkentdagi "Qizil O'zbekiston" gazetasi tahririyatining "Ishchi-batrak maktublari" varaqasiga muharrirlik qiladi. 1925 yilda u gazetada ishlash jarayonida O'rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetini tamomlaydi.

Abdulla Qahhor yana Qo'qonga qaytib borib, dastlab o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursida muallimlik qiladi. U ko'p vaqt o'tmay "YAngi Farg'ona" viloyat gazetasiga kotib va "CHig'iriy" hajviy bo'limiga mudir etib tayinlanadi.

Abdulla Qahhor adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlaganligini aytdik. SHoirning "Oy kuyganda" ilk hajviy she'ri 1924 yilda "Mushtum" jurnalida "Norin shilpiq" taxallusi ostida bosilgan. So'ngra uning bir qancha hajviy she'r va hikoyalari "Mushtum", "YAngi yo'l" jurnallari va "Qizil O'zbekiston" gazetasida Mavlon kufur, Gulyor, Nish, Erkaboy, Evoy kabitaxalluslar ostida e'lon qilingandi.

Abdulla Qahhor 30-yillarda yana Toshkentga qaytib keladi va O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetiga o'qishga kiradi. Yozuvchi o'sha paytda "Sovet adabiyoti" jurnalida mas'ul kotib vazifasini bajaradi. Keyinchalik u O'zdvashr (1935-1953 yillar)da muharrir va tarjimon, 1954-1956 yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishlagan.

Abdulla Qahhorning ijodi she'riyat bilan boshlangan bo'lsada, uning adabiy merosi negizini nasriy asarlari tashkil etgan. "Boshsiz odam" hikoyasi 1929 yilda chop etilgan vaqtдан boshlab umrining oxirigacha hikoya, ocherk, publitsistika, qissa va roman janrlarida samarali ijod qildi. Adibning birinchi "Qishloq hukm ostida" qissasi 1932 yili chop etilgan. Keyinchalik

1933 yilda “Olam yosharadir”, “Qotilning tug’ilishi”, 1935 yilda “Qanotsiz chittak”, 1936 yilda “Maston” kabi hikoyalari to’plamlari nashrdan chiqdi.

Abdulla Qahhorning 30-yillar ijodida uning birinchi romani – “Sarob” muhim o’rinni egallaydi. Yozuvchining ushbu romani bosh qahramon Saidiyning faoliyatini ko’rsatishga qaratilgan, yana unda 20-yillarning 2-yarmidagi o’zbek xalqi hayotining maishiy, etnografik, iqtisodiy va ma’naviy manzaralari yaqqol aks etib turadi.

“Sarob” keng mavzuli roman bo’lgani uchun yozuvchi o’zining badiiy niyatini shunchaki ko’rsatmay, uni shu davr hayotining boshqa manzaralari ko’rinishida reallashtirishga uringan edi. Voqealar tasvirida yozuvchi hayot haqiqatini saqlab qolgan. Yozuvchining urush yillarida bir qancha feleton, ocherk va hikoyalari e’lon qilindi. “Asror bobo”, “Dardaقدan chiqqan qahramon”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinlar” hikoyalari va “Oltin yulduz” kabi qissalarida o’zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan.

Adabiyotshunos olim, tanqidchi professor Hafiz Abdusamatov aytganlaridek, Abdulla Qahhorning ulkan xizmati shundaki, u chaqaloq holda bo’lgan novellani o’stirdi, voyaga etkazdi, uning rivojiga bo’y berdi. Uning hikoyalari bilan orqada qolgan bu janrning obro’si yanada ko’tarilib bordi, boshqa janrlarga yetib oldi, adabiyotda mustahkam, tarixda abadiy qoladigan o’rinni egallab oldi. Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasi uning novellachilik faoliyatiga, umuman ijodiga katta ishonch bag’ishladi. 30-yillarga kelib, adibning bu sohadagi talanti qiyg’os ochildi. Eng yaxshi hikoyalari shu davrda yuzaga keldi. Baquvvat, hammaga manzur bo’lgan hikoyalari kitobxonlarga ketma-ket taqdim etila boshladi. “Ko’r ko’zning ochilishi”, “Anor”, “Bemor”, “O’g’ri”, “Mayiz emagan xotin”, “Adabiyot muallimi”, “San’atkor”, “Munofiq” kabi hikoyalari novellaning barkamol namunalari bo’lib maydonga chiqdi.

Avvalo, ularda Abdulla Qahhor hayotdagi turli toifadagi kishilarning zarur,

kerakli tomonlarini olib ustalik bilan tipiklashtirib, puxta xarakterlar yaratib berdi. Katta hamjdagi asarlar inson xarakterini yaratish uchun keng yo'l ochadi.

Bunday asarlarning mualliflari qahramonlarini turli vaziyatlarga olib kirish, har xil kishilar bilan to'qnashtirib, portretlarini har tomonlama ta'riflab, talay baquvvat xarakterlar chizganlar. Ammo mitti asarlarga xarakter yarata olish, ularni kurashga olib kirish, taqdirlarini ishonarli hal qilib, puxta xarakterlarini chizish mualliflardan katta san'atni talab qiladi. Abdulla Qahhor esa yuqorida tilga olingan hikoyalarida bu mushkul san'atni to'la egallab olganini namoyish qiladi.

Bunga u hayotni to'la bilishi, insonlarning ichki olamiga chuqur kirib borishi orqali erishadi. Bu esa o'z qahramonlarining shodligini, qayg'u-alamlarini, hayajonlarini, g'azabnafratlarini, kuchli kechinmalarini yorqin ifoda etishga imkoniyat tug'dirdi.

Novellalarda kishi ruhining murakkab tomonlari nozik tasvirlarda ko'rinadi. YOzuvchi hikoyalarining muhim xususiyatlari shundaki, ularda insonning ichki holati to'g'ri tasavvur qilinishi bilan birga, ruhiy holati asar mazmuni bilan bog'lanib ketadi.

Abdulla Qahhor jajji hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o'z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka taomil zo'r edi. Buni juda ko'p asarlari aytib turibdi. U yomonga o'z idealini, davr nafasini qarshi qo'yadi, asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorni novellachilikda ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelgan omillardan yana biri – uning mumtozlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan o'qish-o'rganishi bo'ldi. “Ulug' san'atkorning ijodi, - deb ta'kidlagan edi shoir, - badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo'ldi”. Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi (1959) vaqtidagi muhokamada rus yozuvchilaridan biri shunday degan edi: «O'zbekistonda katta adabiyot bor. U, shu darajada yuksalibdiki, uning ba'zi vakillaridan, masalan, A. Qahhordan biz ham o'rganishimiz kerak».

Abdulla Qahhor hikoyaning yirik ustas, mahorat egasii. Shuni alohida qayd etib o'tishimiz kerakki, Abdulla Qahhordan avval ham, u ijod etgan zamonda ham, undan keyin ham talay novellistlar bu turda qalam tebratdilar va tebratmoqdalar. Lekin ularning hech qaysi biri uning oldiga tusholmadi. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida tengi yo'q novellist.

Abdulla Qahhorning povestlari kitobxonlar orasida ko'proq mashhur bo'lib ketdi. U xalq ommasi hayoti va kurashining turli bosqichlarini ifoda etgan povest va qissalarni ketma-ket nashr ettirdi. "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Oltin yulduz" qissalari urush yillarining dahshatli va mardonavor manzaralari bilan tanishtiradi.

"Muhabbat"da esa, yoshlarning po'latday mustahkam do'stligi, ikki qalbning otashin hissiyotlari, bu yo'ldagi turli-tuman to'siqlarni matonat bilan engib, qarshiliklarga uchraganda chok-chokidan so'kilib ketadigan sevgi emas, balki hayot girdoblari to'lqinlarida yanada mustahkamlanadigan muhabbat madh etiladi. SHuningdek, qissada axloq-odob, insoniy muhabbat, ma'naviy poklik targ'ib qilinadi, molparastlik, xudbinlik qoralanadi.

Povestlar ichida ayniqsa, "O'tmishdan ertaklar" (1965) hamda "Sinchalak" (1958) kitobxonlar o'rtasida shov-shuvga, ularning katta hurmatiga sazovor bo'la oldi.

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar"i memuar xarakterdagi asar bo'lib, adibning o'z hayoti, oilasi misolida, xotiralari asosida yozilgan bu asarda hayot voqealari tarixan aniq va realistik chiziladi. Adib "O'tmishdan ertaklar"ida bizni o'tgan voqealarga, hayotning achchiq-chuchuk lavhalaridan olib o'tadi.

Biz yosh Abdulla bilan birga kulfatlarni, azoblarni boshimizdan kechirganday bo'lamiz, yangi hayot bo'sag'asiga kirib nash'asini sura boshlaganday bo'lamiz. Turmushdagi voqea va hodisalarning ishonarli qilib asoslab aytilishi, ularning qiziqarli, badiiylikda hikoya qilinishi povestning yutug'ini ta'minlagan asosiy omildir. Abdulla Qahhor prozaning deyarli barcha turlarida qalamini charxlab olgandan keyin, adabiyotimizning qiyin janrida ijod etib, to'rtta diqqatga sazovor bo'lgan sahna asarlarini yozdi. San'atkorning dramaturgiya sohasidagi xizmati uning

komediyalari bilan xarakterlanadi. Muallif shu davrning muhim mavzularidan biri – qo'riq ertalarni o'zlashtirish mavzusidagi “SHohi so'zana” (“YAngi er”, 1949-1953) komediyasidir.

Taniqli rus dramaturgi Nikolay Pogodin “Yangi yerni “talantli komediya” deb atashi ham bejiz emas. “SHohi so'zana” komediyasida qo'riq ertalarning – Mirzacho'lning o'zlashtirilishidan ko'ra ba'zi kishilar ongidagi sho'rnin bartaraf etilishi mavzui birinchi o'ringa olib chiqilgan. Urushdan keyingi o'zbek adabiyotidagi asosiy konflikt – yangilik bilan eskilik o'rtasidagi ziddiyat bu komediyada o'zining teran badiiy tasvirini topgan. Ushbu asarda muallif ustalik bilan kulgili holatlar yaratgan va hajviy bo'yoqlardan mohirona foydalangan holda konfliktni o'ziga xos ravishda hal qilgan. Ushbu komediya xorijiy mamlakatlar sahnasida ham o'ynalib, o'zbek teatr sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish qilindi.

Abdulla Qahhor keyinchalik “Og'riq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962) hamda “Ayajonlarim” (1967) komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Bu asarlarda, xususan “Tobutdan tovush”da o'sha davr uchun xos bo'lgan illatlar hajv o'ti ostiga olindi. Ayniqsa so'ngi asarda Abdulla Qahhor o'ziga xos nozik tuyg'u bilan jamiyatdan poraxo'rlikdek dahshatli illatni tag-tomiri bilan yo'qotish istagida uning ayrim ko'rinishlarini sahnaga olib chiqdi, u “So'nggi nusxalar” nomi bilan ham sahna yuzini ko'rdi.

Abdulla Qahhor hayotining so'nggi kunlarida sho'ro jamiyatida shaxsga sig'inishning avj olishi orqasida yuz bergan fojialarni tasvirlovchi “Zilzila” qissasi ustida ish olib bordi. Biroq uni tugata olmagan. Ayni paytda Abdulla Qahhor asarlari rus, arman, belorus, gruzin, latish, litva, moldovan, mordov-erzya, ozarbayjon, tatar, tojik, tuvin, turkman, uyg'ur, ukrain, chechen, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, eston kabi tillarga tarjima qilingan. Uning ayrim hikoyalari esa arab, bengal, bolgar, vetnam, ingliz, ispan, mongol, nemis, polyak, rumin, frantsuz, fors tillarida chop etilgan.

Ulug' san'atkor yozuvchimiz ijod bulog'i qaynab turgan bir pallada og'ir darddan 1968 yil 25 mayda 61 yoshida dunyodan o'tdi. Abdulla Qahhor ijodi bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan va yozilmoqda hamda bir qator yirik monografiyalar, tanqidiy va biografik risolalar nashr etilgan.

Jumladan: H.Abdusamatovning "Abdulla Qahhor" (Hayoti va ijodi haqida) (1957), "Abdulla Qahhor" (Hayoti va ijodi haqida ocherk) (1960), M.Sultonovning "Abdulla Qahhor uslubining ba'zi masalalari" (1967), "YOzuvchi uslubiga doir" (1973), M.Qo'shjonov, U.Normatovning "Mahorat sirlari" (1968), M.Qo'shjonovning "Hayot va nafosat" (1970), "Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor" (1973), "Abdulla Qahhor mahorati" (1988), N. Rahimjonovning "Abdulla Qahhor va Hamza teatri" (1971) kabi asarlari ham yaratildi. N.Qo'chqorovning "Badiiy so'z ustasi" (1976), M.Abdurahmonovning "Ruhiy dunyo tasviri" (1977), S.Mirzaevning "Xalq sevgan adib" (YOzuvchi Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida) (1977), M.Tursunxo'jaevaning "Tarjima san'ati" (Abdulla Qahhor asarlari misolida) (1977), N.SHodievnig "Ruhiyat rassomi" (1977), K.Qahhorovning "CHorak asr hamnafas" (O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor haqida xotiralar) (1987), O.SHarafiddinovning "Abdulla Qahhor" (Hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar) (1988). SHuningdek, "Adabiyotimiz avtobiografiyasi" (1973), "Abdulla Qahhor" (Hayoti va ijodi) (1987), "Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida" (1987), rus tilida I.Barolinaning "Abdulla Kaxxar" (Ocherk tvorchestva) (1957), L.Batning "Незабываемые встречи, литературные беседы" (Vospominaniya) (1972), M.Agatovning "Ob avtorax vashix knig literaturnyx kompozitsiy po materialam kriticheskoy i memuarnoy literatury" (1972), V.Oskotskiyning "Negasimoe plamya kostra" (1977), M.Bekjanovning "Razvitie satiricheskix traditsiy Gogolya v tvorchestve Abdullы Kaxxara" (1978) kabi risolalar yaratildi.

Adibning "Ayajonlarim", "Og'riq tishlar", "SHohi so'zana", "Tobutdan tovush"

kabi asarlaridan pesalar yaratildi va teatr sahnalarida qo'yildi. "Sinchalak" povesti bo'yicha kinofilm yaratildi.

Abdulla Qahhor adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni bilan (1967) taqdirlandi. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1966) mukofotiga sazovor bo'lgan. Mustaqillik yillarida esa "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Abdulla Qahhor rang-barang ijodi va ulkan so'z san'atkori sifatidagi faoliyati bilan o'zbek xalqi madaniyatining yanada yuksalishiga katta hissa qo'shdi. 1987 yilda adib yashagan uyda Abdulla Qahhor uy-muzeyi tashkil etildi.

Hozirgi kunda uning nomi Toshkent va Qo'qondagi bir necha ko'cha, maktab va jamoa xo'jaliklariga, shuningdek madaniyat uylari va respublika Satira teatriga berilgan. Uning "Sarob" romani qayta-qayta nashr qilingan. Jumladan, 1995 yilda "XX asr o'zbek romani" turkumida chop etildi. YOzuvchi XXI asrda yashovchi avlodlarga XX asr o'zbek jamiyatining qiyofasini namoyon qiladi, chunki uning asarlari chinakam o'zbekona nasr namunasi edi. "Adabiyot ko'ngil ishi, ilhom samarasi" ekanligini anglagan o'zbek kitobxoni Abdulla Qahhor asarlarini mutolaa qilar ekan, yozuvchi iste'dodiga albatta tan beradi. Zeroki, sevimli adibimizning o'zi orzu qilgan asarlari "adabiy go'zallik"ning nasrida o'z aksini ko'rsatgan. "Adabiy go'zallik" ila yo'g'rilgan asarlarini hali ko'p o'qiymiz.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish o'rinli:

- Abdulla Qahhor o'z ijodini she'riyatdan boshlab, keyinchalik nasrga kirib kelgan ijodkor.
- Uning hikoyalari o'zbek hikoyanavisligini jahon adabiyotiga olib kirishda, tanitishda muhim asos bo'lib xizmat qilgan.
- YOzuvchsi hikoyalari orqali orttirgan tajribalari uning zabardast romanlar yaratishiga muhim tajriba mktabi bo'lib hizmat qilgan.

- Abdulla Qahhor hikoyalaridan o'rganib juda ko'plab yosh o'zbek hikoyanavislari etishib chiqdilar. Ular chinakam so'zni his etadigan qahhorona ijokor bo'lib etishdilar.

2-bob. Abdulla Qahhor asarlarining o'ziga xosligi va tarjimalari xususida.

2.1. Nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning xususiyatlari va ularning qo'llanilishi

Nemis tilidagi olmoshlar ma'no va xususiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- kishilik olmoshlari;
- ko'rsatish olmoshlari;
- egalik olmoshlari;
- nisbiy olmoshlar;
- man shaxsi noaniq olmoshi;
- es shaxssiz olmoshi va boshqalar

Ko'satish olmoshlari (Demonstrativpronomen) shaxs va predmetlarni ko'rsatish, ta'kidlash va ajratish uchun qo'llaniladi. Ularga: dieser, diese, dieses (bu, shu), diese (bular, shular); jener, jene, jenes (u, o'sha), jene (ular); solche, solcher, solches (bunday, shunday) kabilar kiradi.

Ko'rsatish olmoshlari aniq artikldek turlanadi. Nemis tilidagi ko'rsatish olmoshlari aniqlanmish bilan rod (jins), son va kelishikda moslashadi. O'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlari esa aksincha, qo'shimcha qabul qilmaydi, o'zgarmagan holda qo'llaniladi.

Dieser Student – bu talaba (mujskoy rod)

Diese Frau – bu ayol (jenskiy rod)

Dieses Gebäude – bu bino (sredniy rod)

Diese Professoren - bu professorlar (ko'plikda)

Egalik olmoshlari (Possessivpronomen) narsa-predmetning biror shaxsga qarashli ekanligini bildiradi. Egalik olmoshlari mein (mening), dein (sening), sein (uning –

mujskoy rod), ihr (uning-jenskiy rod), unser (bizning), euer (sizning), ihr (sizning), Ihr (Sizning – hurmat shakli) kiradi.

Mein Sohn ist Fußballspieler - mening o'g'lim futbolchi

Sein Freund ist Lehrer - uning do'sti o'qituvchi

Nemis tilidagi har bir kishilik olmoshiga muayyan egalik olmoshi to'g'ri keladi:

Ich – mein (men -mening)

Du – dein (sen - sening)

Er – sein (u- uning: mujskoy rod)

Sie – ihr (u – uning: jenskiy rod)

Wir – unser (biz - bizning)

Ihr – euer (siz - sizning)

Sie – ihr (u - ularning)

Sie – Ihr (hurmat shakli)

Egalik olmoshlari nemis tilida birlikda noaniq artikllarga, ko'plikda esa aniq ariklarga o'xshab turlanadi.

Nominativ - ein, mein Freund (m), - eine, meine Freundin (f), - ein, mein Buch (n)

Genitiv – eines, meines Freundes – einer, meiner Freundin – eines, meines Buches

Dativ – einem, meinem Freund – einer, meiner Freundin – einem, meinem Buch

Akkusativ – einen, meinen Freund – eine, meine Freundin – ein, mein Buch

Nemis tilida egalik olmoshlari aniqlanmish bilan rodb son va kelishiklarda moslashadi:

Mein Vater arbeitet in der Fabrik.

Deine Frau studiert in der Universität.

Unsere Familie sitzt im Wohnzimmer.

Nemis tilida gapning egasi narsa-predmet egasi bo'lsa, egalik olmoshlari o'zbek tiliga o'z o'zlik olmoshi vositasida tarjima qilinadi:

Ich lese mein Lieblingsbuch - men o'z sevimli kitobimni o'qiyapman;

Du schreibst ein Brief an deinem Freund - sen o'z do'stingga maktub yozayapsan.

Kishilik olmoshlari (Personalpronomen) ga ich (men), du (sen), er (u – mujskoy rod), sie (u – jenskiy rod), es (u – sredniy rod), wir (biz), ihr (siz), sie (ular), Sie (ular – hurmat shakli) kiradi.

Nemis tilidagi kishilik olmoshlari ot o'rnida qo'llanilib, shaxs yoki predmetni ifodalab keladi. Kishilik olmoshlari birlik va ko'plik shakllariga ega bo'lgan uch shaxsga, birlik va ko'plikda ishlatiladigan hurmat shakliga ham egadir.

ich – men

du – sen

er, sie, es – u

wir – biz

ihr – siz

sie – ular

Sie – Ular

Birinchi va ikkinchi shaxslar rod jihatidan farq qilmaydi. Uchinchi shaxs birlik har uchchala rodni ifodalaydi:

Er – mujskoy rod

Sie – jenskiy rod

Es – sredniy rod

Dieser Student. Er studiert im ersten Studienjahr.

Die Lehrerin unterrichtet Deutsch. **Sie** ist sehr fleißig.

Dieses Buch ist sehr interessant. **Es** ist über die Geschichte Usbekistan.

Du, ihr, Sie kishilik olmoshlari nutq qaratilgan shaxsni anglatib keladi. **Du** kishilik olmoshi senlab gapirish uchun ishlatiladi. U bilan nemislarda oila a'zolari, qarindoshlar, do'stu birodarlar, tanish-bilishlar, bir korxonada ishlaydiganlar bir-birlariga murojaat qiladilar, foydalanadilar. Bu jihat o'zbeklarda bir oz o'zgacharoq ekanligini bilishimiz kerak.

Der Lehrer fragte Studentin: “hast **du** die Hausaufgabe gemacht?”

Ihr olmoshi nutq qaratilgan umumiy ko'plikni ifodalaydi:

Liebe Studenten! Habt **ihr** die Übungen schriftlich geschrieben?

Uchinchi shaxs ko'plik olmoshi Sie birlik va ko'plikda hurmat shaklida ham qo'llaniladi. Bunday paytda u bosh harf bilan yoziladi:

Herr Schreiber! Bitte, erklären **Sie** uns die Besonderheiten der deutschen Übersetzungswissenschaft.

Nemis tilidagi kishiik olmoshlarining kelishik shakllari to'g'risida. Nemis tilidagi kishiik olmoshlarining kelishik shakllari turli o'zak ko'rinishiga ega bo'ladi. Ular superlativ yo'li bilan turlanadi. Ich sagte meinem Kollegen: “Bitte ruf **mir** heute Abend an!”.

Nemis tilidagi kishilik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadilar:

Kasus	Singular			Plural			Höflich keitsform
	1-Person	2-Person	3-Person	1-Person	2-Person	3-Person	
Nominativ	ich	du	er, sie es	wir	ihr	sie	Sie
Genitiv	meiner	deiner	seiner ihrer seiner	unser	euer	ihrer	Ihrer
Dativ	mir	dir	ihm ihr ihm	uns	euch	ihnen	Ihnen
Akkusativ	mich	dich	ihn sie es	uns	euch	sie	Sie

Man shaxsi noaniq olmoshi noaniq olmosh hisoblanadi. U gapda ish-hrakatni bajaruvchi shaxs aniq ko'rsatilmagan holda, umulashgan ko'rinishda beriladi. **Man** shaxsi noaniq olmoshi turlanmaydi va doimo birlikda ishlatiladi, uchinchi shaxs birlikda keladi.

Man shaxsi noaniq olmoshi o'zbek tiliga uchinchi shaxs ko'plik shaklida tarjima qilinadi. Bunda mazkur **man** shaxsi noaniq olmoshining o'zi tushurib qoldiriladi.

Masalan:

Man muss rechtzeitig die Hausaufgaben machen – uy vazifalarini o'z vaqtida bajarilishi lozim.

Man frühstückt – nonushta qilayaptilar

Man trinkt Kaffee – kofe ichayaptilar

Man fährt nur mit dem Bus – faqat avtobus bilangina borish mumkin

Man olmoshi modal fe'llar bilan ham qo'llaniladi va bunda quyidagi ma'nolarni anglatadi:

man kann – mumkin

man kann nicht – mumkin emas

man muss – lozim

man muss nicht – lozim emas

man soll – zarur

man soll nicht – zarur emas

man darf – ruxsat etiladi

man darf nicht – ijozat etilmaydi

Nemis tilidagi “es” shaxssiz olmoshi (unpersönliche Pronomen) va uning qo'llanilishi.

Es olmoshi shaxssiz gaplarda rasmiy hatdan sintaktik ega vazifasini bajaradi. U quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Nemis tilidagi gapda tabiat hodisalarini ifodalovchi sof shaxssiz fe'llar qo'llanganda: schneien, regnen, donnern, blitzen, dämmern, hageln. Masalan:

Es schneit – qor yog'ayapti

Es regnet – yomg'ir yog'ayapti

Es donnert – mamaqaldiraq chaqayapti

Es blitzt – chaqmoq chaqayapti

2. Ot-kesim bo'lib keladigan shaxssiz qurilmalarda:

Heute ist es kalt.

Es ist Winter.

Es wird dunkel.

3. SHaxsi aniq fe'llar shaxssiz fe'llar vazifasida kelganda:

Wie geht es?

Wie steht es?

4. *Es* olmoshi ko'p ma'noli sanaladi. U quyidagi ma'nolarda ham kelishi mumkin:

- a) Sredniy roddagi uchinchi shaxs birlik kishilik olmoshi:

Das Mädchen ist krank. **Es** weint. Großmutter beruhigt **es**.

Unser Haus ist groß. **Es** befindet sich in der Navoistrasse.

- b) ko'rsatish olmoshi bo'lib kelganda:

Erzähle mir über deine Reise nach Deutschland. **Es** ist interessant für mich.

Gumon omoshlari (Nemis va o'zbek tillarini qiyoslash asosida).

Nemis tilida gumon olmoshlari noma'lum shaxs, predmet va ularning noaniq bo'lgan sonini ifoda etish uchun qo'llaniladi. Quyidagi olmoshlar gumon olmoshlari hisoblanadi: *man, einer, etwas, jemand, jedermann, mancher, jeder, etlicher, all, alle, alles, viele, wenige*.

O'zbek tilida gumon olmoshlari quyidagi yo'llar bilan yasaladi:

1. So'roq olmoshlariga alla-prefiksini qo'shsish bilan: *allakim, allanarsa, allanima, allaqanday*.
2. Ba'zi so'roq olmoshlariga – dir prefiksini qo'sish yo'li bilan: *kimdir, nimadir, qandaydir*.
3. Narsa, nima olmoshlaridan keyin ham so'zini keltirish yo'li bilan: "... *ha, aytganday, g'alati tush ... bi; mayman qayer ekan ... yinimda kom ham bor ekan Oy ikkita chiqqan emish*" (Abdulla Qahhor).
4. Bir so'ziga –ov, -on, - or affikslarini qo'shish yo'li bilan: *birov, birin, biror*.

Nemis va o'zbek tillarining quyidagi gumon olmoshlari bir-biri bilan mos tushadi:

1. Einer (eine) ein (e) s – биров, бирон киши: **Einer** von Arbeiter wird ihnen helfen. – Ишчилардан бирон киши сизларга ёрдам қилади;
2. Etwas (irgend etwas) – алланарса, алланима, нимадир, қандайдир, бир нима: Er ging ohne **etwas** zu sagen – У бирор нарса демасдан кетиб қолди;
3. Gewiß (қандайдир): ein **gewisser** jemand – қандайдир бир одам;
4. Jemand – аллаким, кимдир: Irgend jemand – кимдир, аллаким, ein gewisser Jemand – кимдир бир киши;
5. Irgend ein (irgend eine, irgend ein) – аллақандай, аллақайси, алланечук; Irgend ein Mensch stand in der Ecke – Бурчакда аллақандай одам турган эди.

Nemis tilining qolgan gumon olmoshlari o'zbek tiliga mos kelmasligini va ularning o'zbek tiliga qanday tarjima qilinishini gumon olmoshlarining qo'llanilishidan bilish mumkin:

1. Alle, all, alles olmoshlari zolg'iz yoki butunning bo'lagi ma'nosini anglatmay, balki ko'plik yani hamma, marcha ma'nolarini anglatadi. U gapda ot oldida kelganda aniqlvchi bo'lib, ot o'rnida kelganda ega, to'ldiruvchi yoki predikat vazifalarini bajaradi:
 - **Alle** sind da (ega);
 - Mein Bruder hilft **allen** (to'ldiruvchi);
 - **Alle** Studenten diese Gruppe sind gesund (aniqlovchi);
 - Die Briefmarken **sind alle** verbraucht (predikativ).

Alle olmoshidan keyin keyin kelgan predmet bildiruvchi so'z birlikda kelsa, uning o'rniga **ganz** olmoshi qo'llaniladi. Masalan: allen Mut, alle Energie aufbieten! Alles Gold, mit **allem** Golde.

All olmoshi jeder, jede, jedes olmoshlari qarshi ma'noda qo'llaniladi: alle menschen – jeder Mensch; aller Anfang ist schwer.

All olmoshi kuchli turlanadi: in aller Fruehe, alle Wochen.

Alle olmoshi mujskoy va sredniy rod otlarining birlik qaratqich kelishigidan oldin kelganda kuchsiz turlanadi:

Es bedurfte **allen** Mutes, **allen** Vertrauens.

All olmoshidan keyin artikl yoki boshqa olmosh kelsa, **all olmoshi** o'zgarmaydigan shaklga ega bo'ladi: Was soll **all** der Schmerz und Lust? **All** mein Glueck (J.W.Goethe).

Alle olmoshi sifat bilan birgalikda kelganda uning oldida ishqatiladi:

Alle gewaehlten Vertreter, die Namen **aller** guten Studenten.

Ba'zi hollarda alle olmoshi jede ko'rsatish olmoshi (har bir) olmoshi ma'nosiga ham yaqin ma'noda ishlatilishi mumkin:

Die Straßenbahn fährt **alle (jede)** sechs Minuten – *Трамвай ҳар олти дақиқада келади.* Демак, уни ўзбек тилига таржима қилганда ҳар олмоши билан ўгирилар экан.

Ba'zan **alle** olmoshining qisqa sjakli ham uchraydi:

Wozu **all** das laute Treiben, **all** das Gelaufe?

Nemis tilining **all, alles, ganz, alle** gumon olmoshlari o'zbek tiliga **belgilash olmoshlari** bilan tarjima qilinadi:

All, alles – hamma, barcha, bari, bor;

Ganz, alle – butun, butkul, tamom, butunlay;

Im ganzen – alles – jami

Misollarni qiyoslang:

Alle Welt – *butun* dunyo;

Ihm ist *aller* Appetit vergangen – uning ishtahasi *butunlay* bo'g'ildi;

An *allen* Gliedern zittiern – *butun* a'zoyi badani bilan titramoq;

Alles eingerechnet – *jami* bo'lib (summasi);

Mit *aller* Kraft – *bor* kuchi bilan;

O'zbek tilida ham bunday olmoshlar mavjud bo'lib, ular nemis tilidagi kabi *gumon olmoshlari* deb yuritilmaydi, balki ular *belgilash olmoshlari* deyiladi:

hamma, barcha, bari, ba'zi, har kim, har nima, har qanday, har qaysi, har bir, har narsa kabilar.

Aksincha, o'zbek tilidagi belgilash olmoshlari nemis tiliga *gumon olmoshlari* bilan tarjima qilinadi:

Barcha olmoshi *hamma* olmoshiga o'xshaydi, lekin u ko'proq kitobiy usulga xosdir. Bu olmosh predmetning umumlashgan ma'nosini ifodalaydi.

Bari olmoshi xuddi, *hamma* olmoshi ma'nosida ishlatiladi. Lekin u dialektal (lahja) xarakteriga ega: *Bari odamlar keldilar. Bari yerga paxta ekildi.*

Butun olmoshi ham umulashgan va biror predmetning to'la holatini ifodalash uchun qo'llaniladi:

Nafisaning bo'yi o'sib, ko'kragi to'lishib, *butun* gavdasi qizlik latofati bilan chog'da, boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'ygan edi (Oybek).

Butkul olmoshi o'z xususiyati va anglatadigan ma'nosiga ko'ra *butun* olmoshi bilan mos kelsada, hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladi:

Jami olmoshi biror bir predmetni butunlik sifatidagi ma'nosini ifoda etmay, balki ko'p predmetning umumlashgan ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi:

Taqsir, olamda gap ko'p, yer yuzida bo'lgan **j'mi** voqealarni har kuni gazetalar yetkazib turadi (Oybek).

Bor olmoshi predmetning umumlashgan belgisini va uning umumiy miqdorini anglatish uchun qo'llaniladi:

Bor san'atini ishga somoq. **Bor** pulini sarflamoq.

Tamom olmoshi predmetning umumlashgan (jamlash) va butun sifatida bo'lgan belgisini anglatish uchun qo'llaniladi. Bu olmosh predmetning umumlashgan belgisini ifoda etadigan olmoshlarga nisbatan kamroq ishlatiladi. Masalan:

Qisqasi, *tamom* yigirma kishining kallasini uzib bitirdilar (Ertakdan).

Har kim olmoshi birlashgan shaxs ma'nosidan bitta shaxsni ifodalaydi.

Har nima olmoshi faqat predmetlarga nisbatan qo'llanilib, hozirgi o'zbek tiliga belgilsah olmoshi sifatida nimaiki ma'nosida ishlatiladi.

Har bir, har qaysi olmoshlarining ayrim ma'nosini ifoda etish, shu guruhga oid olmoshlarning ayrim ma'nosini ifodalashga nisbatan anchagina kuchlkiroqdir.

Masalan:

Festivalning *har bir* kuni ulkan va shodiyona bir bayramga aylandi.

Хар қандай, ҳар қанақа олмошлари турли белгиларга эга бўлган шахс ёки предметни айириш (ажратиш) маъносини англатади. Бу олмошларнинг ажратиш маъносини ифода этиши, шу гуруппага оид бошқа олмошларнинг ушбу вазифани бажаришга нисбатан кучсизроқ.

Немис тилидаги қуйидаги олмошлар ўзбек тилидаги белгилаш олмошларига хос маъноларни ифода этади.

1) **Jeder** гумон олмоши ёрдамида ҳар бир, ҳар қайси белгилаш олмошларига хос маъно ифодаланади:

Jeder zehn Schritte hielt er an. – Ҳар ўн қадамда кейин у тўхтаб олди.

Jeder олмоши немис тилида от ўрнида келад олади ва у ўзбек тилига белгилаш олмоши ҳар ким билан ифодаланади: *Allen und jedem* – ҳаммага ва ҳар кимга каби.

Бундан ташқари ўзбек тилидаги *ҳар ким* белгилаш олмоши немис тилида *jedermann* гумон олмоши билан ифода қилиниши мумкин. Фақат бу олмош ҳозирги немис тилида бироз эскирган ҳисобланади.

Ўзбек тилининг *ҳар қандай, ҳар қанақа* белгилаш олмошлари немис тилидаги *jeder* гумон олмоши, *beliebig* сўзи ёрдамида ифода этилади: *zu jeder beliebigen zeit* – ҳар қандай пайтда, *um jeden Preis* - ҳар қандай йўл билан.

Ўзбек тилида *ҳамма, бари, барча, жами* олмошлари сифат хусусиятларига ҳам эга бўлиб, гапда аниқловчи вазифасини бажаради, отлашганда эса, тўлдирувчи бўлади.

Бутун, тамом, буткул, барча, бор олмошлари отлашмай, гапда аниқловчи бўлиб келади.

Ҳамма, бари, барча олмошларини немис тилига гумон олмоши ёрдамида ифода этилади. Лекин *жами* белгилаш олмошини немис тилига *alle* олмоши маъносида таржима қилиб бўлмайди. Жами олмошига хос маъно немис тилида *ganz* равиши ёрдамида ифодаланади. Бунда *in* предлогини жўналиш (Dativ) келишида қўлланилиб, *ganz* сўзи олдида ишлатилади:

Im ganzen – жами, *im ganzen genommen* – жами бўлиб, жамини олганда.

Бундан ташқари *ganz* сўзи равишвазифасида келганда *жуда* маъносини ҳам ифодалайди, масалан:

Ganz bequem – *жуда* қулай.

Das schmeckt ganz gut – бу *жуда* мазали.

Бутун, тамом, буткул, бор олмошлари немис тилида *ganz* ёрдамида ифода этилади, масалан:

Von **ganzem** Herzen – **бутун** (чин) қалбдан

Den **ganzen** Tag – **бутун** кун, кун бўйи

Die **ganzen** Leute - **бор** одамлар

Ҳар олмоши отлашмайди ва шунинг учун у гапда аниқловчи вазифасида келади ва *томон, ер, вақт* каби баъзи сўзлар билан қўшилиб, тўлдирувчи ёки ҳолга оид сўз бирикмаси ясайди.

Ҳар ким, ҳар нима олмошларининг грамматик хусусиятлари отларнинг грамматик хусусиятларига ўхшайди.

Ҳар бир, ҳар қайси олмошлари сифатга яқин бўлганлиги учун, улар гапда аниқловчи вазифасини бажаради, отлашганда эса, тўлдирувчи, ё ҳол вазифасини бажариб келади. Бу олмошлар ҳам кўплик ва бирликнинг биринчи шахс аффиксларини қабул қилмайди.

Ҳар қалай, ҳар қанақа олмошлари ҳам сифатларга жуда яқин келади ва гапда аниқловчи вазифасини бажаради.

Баъзи, айрим, бир хил олмошлари гапда аниқловчи вазифасида, отлашганда эса тўлдирувчи бўлиб келади. Бу олмошлар кўплик ва бирлик биринчи шахсдан ташқари бошқа ҳағма шахсларда эгалик аффиксини қабул қилади.

Баъзи олмоши немис тилига *einige* сўзи ёрдамида таржима қилинади: Er hat **einige** Erfahrung darin. – У бу ишда *баъзи* тажрибага эга.

Айрим олмоши немис тилига *einzel*n сўзи ёрдамида таржима қилинади: Diese gefährliche Stelle kann man nur *einzel*n passieren. – Бу хатарли ердан фақат *айрим-айрим* (ёлғиз-ёлғиз) ўтиш мумкин.

Бир хил олмоши немис тилига *gleich, identisch* сўзлари ёрдамида таржима қилинади: *gleich zu gleich* stehen – *бир хил* ҳуқуққа эга бўлмоқ.

Немис тилидаги *ander (andere, anderes)* гумон олмоши ҳам ўзбек тилининг белгилаш олмошлари билан мос тушмайдиган олмошлар бўлиб, *фарқ, ажратиш, ҳар хиллик* маъноларини ифода этади. Гапда у от ва сифат вазифасида келиб, бирлик ва кўпликда қўлланилади:

anderer Meinung sein, anderes Wetter, alles **andere** ist billig.

ander олмоши сифат каби турланади.

Ein **anderes** Wort, ein Wort gab das **andere**; Wort aus **anderem** Holze, sag es dem **anderen**.

2) Немис тилида *средний род* бирликда **anderes** олмоши мавжуд бўлиб, уни **anderes** равиши билан таржима қилмаслик керак. Қиёсланг: *ein anderes Leben, jemand anders* каби.

Ўзбек тилига бу олмошлар қуйидагича таржима қилинади:

Er ist ganz *anderer* geworden. – У бутунлай *бошқа* одам бўлди;

Am *anderen* Tage – *бошқа* кун;

Jemanden von einem zum *anderen* schicken – Бирор кимни биридан *бошқасига* юбормоқ (сарсон қилмоқ).

3) **Einer (eine, eines)** гумон олмоши *eins* санок сонидан келиб чиққан бўлиб, у от вазифасида, ноаниқ артикл каби сифат ўрнида ҳам қўлланилади. От ўрнида ишлатилганда *einer* олмоши *jemand* ва *man* олмошларига яқин бўлган маънода ишланилади. **Einer** олмоши **jemand** олмошига қараганда оғзаки нутқда кўпроқ қўлланилади. **Einer** олмоши **jemand** ва **etwas** олмошига қараганда кўпроқ ноаниқликни ифодаб келади:

Eines schickt sich nicht für alle. (Goethe)

Ўзбек тилига **Einer (eine, eines)** гумон олмоши **кимдир, аллаким** гумон олмошлари билан таржима қилинади. Гумон олмошининг бу тури икки тилда ҳам бир-бирига мос тушади.

Einer muß mit guten Beispielen vorangehen. – **Кимдир** яхши мисол билан олдинга (доскага) чиқиши керак.

Einer von ihnen muß heute nach Frankfurt fliegen – Улардан **бири** бугун Франкфуртга учиши керак.

4) **Etwas (irgend etwas)** - гумон олмоши қисман гумон маъносини англатиб, от ва сифат ўрнида қўланила олади:

Etwas interessantes, etwas Gutes, etwas schönes – бирор қизиқарли, бирор яхши, бирор гўзал нарса ...

5) **jeder, jedermann, jeglicher (ҳар бир, ҳар ким)** гумон олмоши фақат бирлик шаклига эга бўлиб, улар кучли турланади: *Jeder ist seines Glückes Schmied.*

Jemand олмоши гапда эга ва тўлдирувчи вазифасида қўлланилади:

Im Hof ist **jemand** (эга)

Gibst du **jemand** Bücher?

Jeder, jedermann (ҳар, ҳар бир, ҳар ким) гумон олмошлари ҳозирги немис тилида анчагина эскирган сўзлардан ҳисобланади.

Jeder аниқ артикл каби турланади.

Jedermann олмоши эса фақатгина бирлик қаратқич келишигида –s келишик қўшимчасини олади:

Diese Arbeit ist **jedermanns** Pflicht und Bedürfnis. – Бу иш **барчанинг** бурчи ва мажбуриятидир.

Jeder олмоши ўзбек тилига *ҳар, ҳар бир*; *Jedermann* олмоши эса – *ҳар ким* белгилаш олмоши орқали таржима қилинади:

Jede zehn Schritte – **ҳар** ўн қадам;

All und **jeder** – ҳамма ва **ҳар бир**.

Er war zu jedermann freundlich. – У *ҳар кимга нисбатан дўстона муносабатда эди.*

6) **Jemand** олмоши *кимдир, бир кимса* маъноларида қўлланилади. У мужской ва женский родга оид бўлган шахслар ҳақидаги фикрни англатиш учун хизмат қилади. Бу олмош ё кучли турланади ёки ўзгармаган ҳолда қолади:

Jemand, jemandes, jemandem, jemanden.

Jemand олмоши гапда эга ва тўлдирувчи вазифасида келади, масалан:

Im Hof ist jemand (эга). Gibst du jemand diese Bücher? (тўлдирувчи).

7) **Man** олмоши родга эга бўлмай, фақат бош келишикда ишлатилади. **Man** гумон олмоши гапда эга вазифасида ишлатилади ва ҳаракатни ижро этувчи шахсни ифода қиладиган *jemand* олмошига синоним бўлади. Қуйидаги мисолларда у эга вазифасида келади:

Man bittet dich ans Telefon. – Сени телефонга чақираяптилар.

Man öffnet das Fenster. - Дераза очилди.

Man klöpfte an die Tür. – Эшик таққиллаяпти.

Немис тилидаги *man* олмошидан кейин келган кесим доим учинчи шахс бирликда туради. Лекин у ўзбек тилига кўпликда таржима қилинади:

Man baut – қурмоқдалар; *man spricht* – гаплашмоқдалар.

8) *Mancher (mfnche, manches)* – баъзи, баъзи бир олмоши ноаниқ шахс ва предметлар сонини ифодалайди. У ноаниқ артикл биланёки усиз сифат каби қўлланилади. *Mancher* олмоши *dieser* кўрсатиш олмоши каби турланади. *So, wie, ganz* равишлари бу олмош билан ишлатилганда олмошнинг маъносини кучайтирувчи аниқловчи сифатида қўлланилади. Масалан:

So mancher – битта эмас, балки кўп; wie so mancher mußte das aussthen – буни қанча одамлар ўз бошларидан кечиришлари зарур бўлган эди. Бу олмошлар от ва сифат ўрнида келиб, кучли турланади.

9) *wer, was* гумон олмошлари оғзаки нутқда (*irgend*) *jemand, (irgend) etwas* – кимдир, бир нарса, бирор нарса, бир нима маъноларига яқин маънода ашлатилади. Бу олмошлар сўроқ олмошлари эмас. Гарчи улар гумон маъносида қўланилса ҳам, гапда ҳеч қачон биринчи ўринда ишлатиламайди.

Wer da? Suchst du wen? Hast du mir **was** gebracht? – ким бор у ерда? Менга бирор нарса олиб келдингми?

Бўлишсизлик олмошлари (die Negativpronomen, verneinende Fürwörter)

Ҳозирги немис тилида *niemand, nichts, kein (er)* сўзлари –бўлишсизлик олмошлари бўлиб, улар инкор маъносини ифодалайди. Ўзбек тилида бўлишсизлик олмошлари *ҳеч* сўзининг сўроқ олмошларига қўшилишидан ҳосил бўлади:

ҳеч нима, ҳеч ким, ҳеч қандай, ҳеч нарса ва бошқалар.

Ўзбек тилида ҳам бўлишсизлик олмошлари инкор маъносини билдиради.

Ўзбек тилидаги *ҳеч қанча* олмоши немис тилида йўқлиги сабабли у *gar nichts, nicht im geringsten* равишлари ёрдамида таржима қилинади: *niemand, keiner* олмошларининг эквиваленти *ҳеч ким, nichts* олмоши ўрнида ўзбек тилида *ҳеч нима, ҳеч нарса* олмошлари ишлатилади.

Бўлишсизлик олмошларининг немис тилида қўлланилиши қуйидагича: *niemand* – *ҳеч ким* маъносида қўлланилади: *Niemand ruft sie an.* – унга ҳеч ким телефон қилмади.

Niemand олмошига хос маъно ўзбек тилига *ҳеч ким, nichts* олмошига эса ҳеч нима, ҳеч нарса олмошлари ёрдамида ифодаланади. *Er ist niemandes feind* – У ҳеч кимнинг душмани эмас.

Hier liegt nichts – Бу ерда ҳеч нарса йўқ.

Nichts олмоши гумон олмошига нисбатан антоним ҳисобланади. Иккала олмош ҳам ўзгармайдиган шаклга эга бўлиб, улар турланмайди.

Niemand олмоши *jemand* олмошига нисбатан антоним бўлиб у *jemand* олмоши каби турланади.

Mir ist niemand bekannt. Ich kenne dort neimanden. Ich weiß nichts davon.

Kein олмоши ҳеч ким, ҳеч қандай, ҳеч қайси маъносини ҳам билдиради. Лекин отларни инкор қилишда бу олмош оддий турланадиган инкор қўшимчаси сифатида қўлланилади. Масалан:

Das ist kein Auditorium

Das ist keine Frage.

Бундай ҳолларда уни баъзан инкор артикли деб ҳам аталади. У отлар билан қўлланганда, ҳамма келишикларда тўла равишда олмош қўшимчалирига эга бўлади. Масалан:

Kein Student

Keine Laborantin

Kein Auditorium

Kein олмоши сифат ўрнида қўлланганда бирликда ноаниқ, кўпликда аниқ артиклдек турланади.

Ein ноаниқ артиклни *kein* олмоши инкор қилади:

Kein нинг маъносини янада кучайтириш мақсадида *kein* дан сўнг **einzig** сўзи келтирилади:

Kein einziger ist da geblieben.

Kein олмоши *ander, dieser* олмошлари билан ҳам қўлланилиши мумкин:

Keiner will vom *anderen* etwas wissen. - Ҳеч ким бошқалар ҳақида бирор нарса билишни истамасди.

Средний род шаклидаги *kein (e)s* олмоши турли родда ишлатилиши мумкин:

Keines wagte, das Licht anzuzünden

Keines der Vierte steckt in dem Tiere (Goethe)

Муносабат олмошлари (das Rezipropronomen)

Немис тилидаги *einander* ва унинг турли предлоглар билан қўшилган *miteinander, zueinander, füreinander* каби ўзгармайдиган бирикмалар муносабат олмошига киради, масалан:

Diese Menschen haben **einander** seit langem gekannt.

Diese Frauen haben viele Jahre **miteinander** gelebt.

Бу олмош иш-ҳаракатнинг бир-бирига бўлган муносабат характери англатади ва унга хос маъно ўзбек тилида *бир-бирини, бир-бирига, бир-бири билан* каби такрорий сўзлар ёрдамида ифодаланади. Қиёсланг:

Einander lieben – бир-бирин севмоқ;

Einander grüßen – бир-бири билан саломлашмоқ.

Miteinander олмоши бир-бири билан, бир-биридан, бирга маъноларида қўлланиладию Қиёсланг:

Miteinander kämpfen – бир-бири билан кўришмоқ;

Miteinander spielen – бирга ўйнамоқ;

Miteinander zufrieden sein – бир-биридан мамнун бўлмоқ.

Füreinander олмоши бир-бири учун маъносида қўлланилади, қиёсланг:

Füreinander etwas tun – бир-бири учун бирор нарса қилмоқ;

Füreinander sorgen – бир-бири учун ғамхўрлик қилмоқ.

Zueinander олмоши бир-бири билан маъносида ишлатилади, қиёсланг:

“du” zueinander sagen – бир-бири билан “сен” деб гаплашмоқ.

Сўроқ олмошлари (Interrogativpronomen)

Сўроқ олмошлари предмет, белги ёки сон ҳақидаги сўроқни англатади. Ҳозирги немис тилида сўроқ олмошлари қуйидагилардан иборат: *wer, was, welcher (welche, welches), was für ein (was für eine, was für ein)*.

Мисоллар: **Wer** sitzt auf dem Sofa?

Auf dem Sofa sitzt Karls Grossvater.

Was hängt an der Wand? An der wand hängt eine Karte. – Деворда нима осиглик турибди?

Welcher Student fällt heute? – Қайси талаба бугун келмаган?

– Karimow. - Каримов

Welche Aufgabe erfüllen sie? – Die Aufgabe 10. – Қайси вазифани бажараяпсиз? -10-вазифани.

Welches Buch nehmen sie mit? – Ein interessantes Buch.

Қайси китобни олдингиз? - Қизиқарли китобни.

Womit beschäftigst du dich? - Сен нима билан шуғулланаяпсан?

Сўроқ олмошларининг **welch** ўзгармайдиган шакли чақирик, ундов гапларда “ein” дан олдин ва аниқловчи сифат олдидан қўлланилади, масалан:

Sehet, *welch ein* Mensch! *Welch ein* würdiger Mann ist der ... verspottete Christian Wolf!

Сўроқ олмошларининг бу ўзгармайдиган **welch** шакли отнинг ноаниқ артикли **ein** билан қўлланганда ўзбек тилида **қандай** сўроқ олмоши билан ифода этилади.

Sehet *welch ein* Mensch ist er! – Қаранг, у қандай одам!

Was für ein сўроқ олмоши фақат предметга оид бўлган белги ва унинг сифатини аниқлаш учун қўлланилади. Қиёсланг:

Was für eine Geschichte ist das? – Бу қандай воқеа?

Ўзбек тилидаги қандай сўроқ олмошининг маъноси немис тилидаги *Was für ein* га нисбатан кенгроқ.

Нега олмоши бирор нарсанинг сабабини англатиш учун ишлатилади: *Нега* келдинг? *Нега* айтмадинг? ва бошқалар. Бу олмош келиб чиқиши жиҳатидан не олмошининг жўналиш келиши шаклидир. Ҳозирда бу олмош морфемаларга бўлинмайди. *Нега* олмошининг маъноси ҳозирги ўзбек тилада *нимага* олмоши ҳамда *нима* учун, *нима сабабдан* каби сўз бирикмалари ёрдамида ифодаланади.

Нечук олмоши ҳам сабаб ҳақидаги сўроқни ифодалайди: *Нечук, нечук* китобдаги гапу, худди кўз олдингизда бўлгандай-а. (П.Турсун)

3. bob. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyasidagi olmoshlarning nemischa tarjimasi

3.1. Kishilik olmoshlari tarjimasi. Atoqli ot tarjimada kishilik olmoshi bilan o’g’irish.

Olmosh har qanday tilda bor. U o’z o’rnida muayyan matnda u yoki bu tarzda qo’llaniladi va mustaqil so’z turkumlari jumlasiga kiradi. Agar olmoshlarni badiiy asarlarda qo’llanilishiga e’tibor beradigan bo’lsak, ular ham o’ziga xos poetik yuklamaga ega bo’lgan tasvir vositalariga aylanganligini ko’rishimiz mumkin. O’zbek adabiyotida hikoyanavislik bilan katta iz qoldirgan Abdulla Qahhor ijodida ham olmoshlardan samarali foydalanilgan.

„Anor” hikoyasi Abdulla Qahhor *Turobjonning qalami yaktagi* realiyasini qo’llaydi. Buni nemis tiliga Oybek Ostons *sein Wattenmantel (uning paxtali paltosi)* tarzida tarjima qilgan. Quyidagi ana jihat hikoya matnida qay tarzda talqin etilganli va uning tarjimadagi ifodasiga e’tibor qaratamiz:

- Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami **yaktagining** engi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi (72-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Während Turobdschon eilig das Hoftor öffnete, verhakte sich **sein** Wattenmantel an dem Riegel und zerriss den Ärmel bis zum Ellbogen (S.7).

Bu yerda asliyat muallifi tomonidan ishlatilgan kishilik olmoshi *Turobjon yaktagining* so’zi tarkibida, ya’ni *uning* tarzida ishlatilgan. Nemischa tarjimada tarjima tili qoidalaridan kelib chiqib, ana shu olmoshni alohida olmosh *sein (uning)* ya’ni erkak jinsidagi shaxsga taalluqli narsa ma’nosida to’g’ri qo’llanilgan. Demak, o’zbek tilidagi kishilik olmoshi bevosita atoqli ot bilan birikkan holda keladigan bo’lsa, uni nemis tiliga tarjima qilganda – alohida holda keltiriladi. Buni Asliyat matnidagi **atoqli ot** tarjimada **kishilik olmoshi** bilan o’g’irilgan.

O'zbekcha asliyatda ham kishilik olmoshining qaratqich kelishigida alohida holatda kelgan o'rinlar ham bor. Jumladan, muallif asar qahramoni Turobjon to'g'risida bir marta kitobxonni tanishtirganidan so'ng u haqda takrorga yo'l qo'ymaslik uchun "Uning shashti qaytdi" (72-bet) deydi. Buni nemis tiliga *Er regte sich nicht sich aber nicht auf und blieb nur kurze Zeit* (S.7), ya'ni – o'zbekcha asliyatdagi *shashti qaytmoq* iborasini tarjimada tavsiflash vositasida o'girar ekan, uni "*u taraddudga tushmay, bir oz turib qoldi*" deb qo'yaqoladi. **Asliyatda o'zbek tilida qaratgich kelishida turgan uning olmoshi** nemischaga **uchinchi shaxs, bosh kelishikda turgan er (u)** bilan tarjima qilingan. Bu ham o'zbek tilidagi kishilik olmoshlarini nemis tiliga o'girishning o'ziga xos bir usulidir.

YUqoridagi holatdan tashqari o'zbekcha asliyatda muallif keltirgan qaratqich kelishidagi olmosh, aniqrog'i ayol kishining ko'z yoshlariga nisbatan qo'llanilgan *uning olmoshi* nemischa tarjima matniga erkak kishining xotini ko'z yoshlari – *in den Augen seiner Frau* tarzida o'girilgan. Olmoshlar tarjimasida jins kategoriyasi muammolarini hal qilish gohida tarjimondan ana shunday usullardan ham foydalanishni taqazo qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jo'nalish kelishidagi kishilik olmoshni tarjimada ham jo'nalish kelishidagi olmosh bilan o'girish. Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasida Turobjon va uning xotini o'rtasidagi mojarolar sirasida muallif jo'nalish kelishidagi kishilik olmoshini qo'llaydi:

- Xotin ovqatga unnadi, erining "boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da" degani **unga** alam qildi, xo'rliqi keldi, o'pkasi to'ldi (73-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Sie hatte Feuer gemacht und begonnen, das Essen zu kochen. Die Worte ihres Mannes hatten sie beleidigt: "Wenn du wegen Getöse keinen Appetit hast, solltest

du versuchen, Maß zu halten”, das tat **ihr** weh. Die Tränen stiegen ihr in die Augen (S.9).

Ma’nosi:

- U olovni yoqib ovqat pshirishga kirishdi. Erining quyitdagi so’zlari uni og’rintirdi: “Agarda boshqorong’ilik tufayli ishtihang bo’lmasa, chegerangni bilishing kerak, bu unga og’ir botdi. Ko’zidan yoshlar oqdi.

Tarjimadan ko’rinib turibdiki, mutarjim asliyat muallifi maqsadini to’g’ri tushungan. Ammo qahhorona lo’ndalik, qisqalik tarjimada ham aynan saqlab qolingan deb bo’lmaydi.

Barqaror so’z birikmasi tarkibida kelgan kishilik olmoshlari tarjimasi.

Abdulla Qahhor frazeologik birliklarni qo’llashda katta mahorat maktabini yaratgan ijodkor. XX asr ikkinchi yarmidagi o’zbek nasrchiligi, xususan hikoyanavislikda uning oldiga tushadigani bo’magan, desak, yanglishmagan bo’lamiz. Abdulla Qahhor o’zining “Anor” hikoyasida ham ana shunday birikmalardan faol foydalanganligini ko’rishimiz mumkin, albatta. Hikoyada Turobjon xotinining boshqorong’iligidan jig’ibiyron bo’lishini tasvirlar ekan, quyidagi tavhani yaratadi:

- Kishining yuragini qon qilib yuborasan! – dedi anchadan keyin, nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo’q, hali biz piyoda-ku! Xo’jayinga bir oshnasi sovg’a qilib kelgan ekan, bildirmasdan ... o’zidan so’rab ozrog’ini oldim... O’zi tansiq emasmi? Umringda necha marta asal egansan? O’zim umrimda bir marta asal eganman: SHokirxo’ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga amamning jo’jasi tushib ketgandi, shu jo’jani yalaganman (74-bet).

E’tibor berilgan bo’lsa, olmoshlar asliyatdagi *Kishining yuragini qon qilib yuborasan* hamda *Asal otliqqa yo’q, hali biz piyoda-ku!* Kabi frazeologik birliklar tarkibida qo’llanilgan. Endi bularning nemischa tarjimasiga e’tibor beraylik:

- “Du kriegst es fertig, dass ich aus dem Gleichgewicht komme. Du bringst mich völlig um den Verstand”, brummte er nach langem Schweigen vor sich hin. „Den Hönig hätte ich besser nicht gebracht... Davon träumen selbst die Reiter, und **wir sind doch die Bauern!** Den Hönig hat eigentlich ein Freund meiner Dienstherren als Geschenk gebracht. Ich bat den Besucher, etwas nehmen zu dürfen, also bekam ich etwas davon, er hat mir selbst gegeben, ohne Wissen meiner Dienstherren. Leckerbissen, dachte ich, das ist ja ein Glück – und du wirst dich freuen! Wie viele Male hast du überhaupt in deinem Leben Hönig gegessen? Ich zum Beispiel aß so etwas nur einmal in meinem Leben. Als Konditor Schokirhodscha zu Hause Honigsirup gekocht hatte, war das Huhn meiner Tante in den Kessel gefallen und das durfte ich das Huhn ablecken.“ (S.10).

Kishilik olmoshlari tarjimasida jins kategoriyasi muammosi.

“Anor” hikoyasida bundan holatlarni yana ko’plab uchratish mumkin. Kishilik olmoshlari bevosita ot bilan birga kelgan boshqa holatlar ham bor:

- Turobjon tugunchani berdi. *Xotini shu erning o’zida, eshik oldida o’tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo’shashib ketdi va sekin boshini ko’tarib eriga qaradi* (72-bet).
- Turobdshon überreichte ihr das Bündel. Auf der Stufe vor der Haustüre sitzend, öffnete *sie es* hastig und plötzlich wurde sie starr vor Überraschung. Langsam hob *sie* ihren Blick und starrte ihren Mann an (7-bet).

Ma’lumki, turkiy tillar grammatikasida, jumladan, o’zbek tilida ham jins kategoriyasi yo’q. Nemis tilida, barcha german tillarida jins kategoriyasi mavjud. Nemis tilida birlikda kelgan erkak jinsidagi kishilik olmoshini er, ayol jinsdagiga nisbatan – sie, va miyoniy (o’rta) jinsga nisbatan esan – es olmoshlari qo’llaniladi. Olmoshlar nemis tilida kelishiklarda turlanadi. Gapda qo’llanilganda u qaysidir otga taalluqli bo’ladigan bo’lsa,

alohida holda ishlatilish holatini yuqorida ko'rdik. Biz keltirgan misoldagi *Xotini* ga nisbatan nemis tilida sie (*u*, ayol kishiga nisbatan qo'llanilgan holat) keltirilgan.

Xuddi shunday holatni ayliyatdagi erkak jinsiga oid olmoshlar tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekcha acliyatda:

- Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotin esa, hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. **Uning** imillashini ko'rib, Turobjonning ko'ziga negadir oqsoq mushuk ko'rindi. Mushuk yirtilgan engni esiga tushirdi, avzoyi buzildi. **Uning** avzoyidan "esiz jo'xori, qatiq, o'tin" degan ma'noni anglab, xotin ko'ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo'shatdi, ammo darhol tom orqasiga o'tib, ko'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi (73-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Die Suppe war fertig. Durch die Zubereitung in den alten verrosteten Kessel war diese jedoch so schwärzlich geworden, dass sogar in saure Milch die Farbe die Maissuppe nicht ändern könnte. Turobjon aß zwei Schüsseln davon, aber seine Frau schaffte nicht einmal eine halbe. **Ihre** Langsamkeit erinnerte ihn irgendwie an die lahme Katze und mit der Katze kamen wieder Gedanken an seinen zerrissenen Ärmel und so ward er wieder verstimmt. Aus **seiner** finsternen Miene konnte man ablesen, wie es ihm um die Maiskörner, die saure Milch und das Brennholz leid tat und deshalb aß seine Frau die Suppe auch auf, obwohl das Gericht nicht gerne möchte. Kaum hatte sie ihren Teller geleert, erblasste sie, stand abrupt auf und lief um die Ecke hinter das Haus. Kurz darauf kaum sie erschöpft zurück, ihre Augen waren rötlich und ihre Blutgefäße im Gesicht sichtbar (S.9).

O'zbekcha asliyatda dastlabki qaratqich kelishigida kelgan olmosh uning Turobjonning xotiniga nisbatan, ya'ni ayol kishi nazarda tutilib, ifodalangan. Buni nemischa tarjimada **Ihre** varianti bilan berilgan bo'lsa, keyingi uning esa, bevosita Turobjonning o'ziga taalluqli bo'lib, uni tarjimada **seiner** bilan berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ko'rsatish olmoshlari tarjimasi.

Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasida ko'rsatish olmoshlarni ham ko'p uchratamiz. O'zbek tilidagi bu, shu, o'sha kabi ko'rsatish olmoshlar faol qo'llanilib kelinadi. Hikoyada Turobjonning xotini o'zining kelib-kelib anorga boshqorong'i bo'lganligidan afsuslanib aygan mana bu monologida ana shunday olmoshlar bor:

- *Bu er yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday qartoshkaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi! (73-bet).*

Nemischa tarjimasi:

- Was für ein Unglück ist *das*! Warum habe ich diese schreckliche Abneigung gegen viele Dinge! Ich kann zwar Salz, oder Kartoffeln während der Schwangerschaft ertragen, aber den Honig nicht in Unterschied zu anderen Frauen!“ (S.8)

Tarjimada ko'rinib turganidek, asliyatda bo'lmagan yana ayrim so'zlar kirib qolgan. Chunki muallif asliyatni bir qadar aniqlashtirib, konkretlashtirib ifodalash yo'lidan borgan. Agar Abdulla Qahhor hikoyasida umumiy ma'nodagi odamlar so'zi qo'llanilgan bo'lsa, tarjimon uni aynan *Frauen* (ayollar) variantini qo'llashni ma'qul ko'radi. Bundan tashqari, asliyatdagi *kesak* tarjimada negadir tushurib qoldirilgan. Nihoyat, asliyatda qo'llanilgan bu - ko'rsatish olmoshi nemischa tarjimada - *das* bilan ifodalangan. Agar ushbu jihatni yana o'zbek tiliga teskari o'giriladigan bo'lsa, *bu qandayin baxtsizlik bo'ldi!* - deb beriladi.

Asliyatdagi otni olmosh bilan tarjima qilish.

O'zbek tilidagi olmoshlarni nemis tiliga turli yo'llar bilan tarjima qilish usularini ko'rdik. Yana shunday holatlar ham uchraydiki, bunda asliyatdagi atoqli ot tarjimada olmosh bilan ifodalanishi ham mumkin. "Anor" hikoyasida Turobjon xotini bilan arazlanib qolganidan so'ng, uning xotining holatini quyidagicha tasvirlaydi:

- **Xotin** darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo'ygan, qoramtir kulrang osmonga qarab o'tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chirog' pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi (74-bet).

Nemischa tarjimasi:

- **Sie** kauerte am Fenster und stützte ihr Kinn mit der Hand, während sie zum dunkelgrauen Himmel schaute. Turobjon blieb in der Mitte des Zimmers reglos stehen. Unter der Nische auf dem Regal brannte eine der fünf Öllampen. Um die Lampe herum kreiste ein Nachschmetterling (S.11).

Nemischa tarjimada asliyatdagi gaplar yanada soddalashtirilganligi, ayrim qo'shma gaplar esa, sodda gapga aylantirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ayni paytda asliyat tarjimada yanada konkretlashtirilganligi va aniqlashtirilganligini ham ko'ramiz. Agar Abdulla Qahhor o'z hikoyasida *bir tizzasiga boshini qo'ygan* desa, tarjimada stützte ihr Kinn mit der Hand, ya'ni u *qo'li bilan tizzasiga suyandi* tarzida aniqlashtirib ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yaxshi. Chunki bunday holatni o'zbeklar o'zbekcha matnda tushunishlari mumkin. Ammo nemislarga buni tushuntirish uchun konkret tasvir lozim. Asliyatdagi xotin, ya'ni ot so'z turkumiga kiruvchi so'z – tarjimada **Sie** (uichnchi shaxs jenskiy rod birlikda) olmoshi bilan o'girilgan. Demak, asliyatdagi otni tarjimada olmosh bilan berish ham o'ziga xos tamoyilligi ko'rinib turibdi. Ayni paytda mazkur kontekst, lavhadagi bir realiya tarjimasida ayrim mavhumliklarga yo'l qo'yilganligini ham aytish kerak. U ham bo'lsa, Abdulla Qahhor hikoyasida kambag'al oilalarda sham yotsish imkoniyati bo'lmagan. Ularning qurbilari etmagan. Faqatgina yoo' bilan yonadigan pilta lampalar, chirog'lar bo'lgan xolos. Turobjon uyida ham asar

muallifining tasvirlashicha, *beshinch* *chirog'* pixillab yonib turganligi tasvirlanadi. Biroq, muammo shundaki, tarjimon Oybek Ostons uni *eine der fünf Öllampen* (beshta yog'li chiroqlardan biri) deb tarjima qilgan. Bizningcha, buo'rinda qo'llanilgan beshinchi chirog' - yog'ga botirilgan piliklik lampaning bir turidir. Uni yog'li beshta chirog'ning biri chiqatida talqin qilish noto'g'ri. Bizningcha, bu o'rinda *die Öllampe* tarzida berib, unning aynan beshinchi chirog' ekanligiga maxsus izoh keltirilsa, maqsadga muvofiq ish bo'lardi.

O'zbekcha asliyatdagi otni tarjimada kishilik olmoshi bilan berish hodisasini mazkur hikoyaning xotima qismini o'girishda ham uchratamiz. Muallif o'z ishidan pushaymon bo'lgan Turobjonning xotini ruhiy holatini tasvirlar ekan, bu haqda jumladan quyidagi tasvirni keltiradi:

- **Xotin** uzoq yig'ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo'ldi, o'zini qarg'adi, o'lim tiladi; yig'idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong'u uzoq-yaqinda itlar hurar edi (76-bet).

Nemischa tarjimasi:

- **Seine Frau** weinte lange und untröstlich. Sie bedauerte, ihren Mann ungerechterweise betrübt zu haben. Sie machte sich vorwürfe und wünschte sich sogar den Tod. Als sie vom Weinen erschöpft war, ging sie in den Garten. Es war Nacht, irgendwo in der Dunkelheit bellen die Hunde (S.12).

Ma'nosi:

- Uning xotini uzoq va yupatadigan tarzda yig'ladi. U eriga nohaq ozor berganidan afsuslandi. U o'ziga malomat qildi va hatto o'lim ham tiladi. Yig'idan to'xtagach, bog'ga chiqdi. Tun edi, qaerdadir itlar hurillardi.

Muallif asliyatda faqat xotin degan otni ishlatgan xolos. Tarjimada esa bu ot **Seine Frau** - uning xotini tarzida o'girilgan. Bu to'g'ri. CHunki nemis tili tabiati ana shunday.

Demak, asliyatdagi otni kishilik olmoshi bilan berish ham o'zbek-nemis tillari aro tarjimadagi o'ziga xos tamoyillardan biri bo'lishi mumkim. Tarjimon ayni paytda asliyatdagi *o'zini* olmoshini ham vaziftdan kelib chiqib - Sie bedauerte (u afsus chekdi) kabi muqobil variant bilan bera olganligini ijobiy usul sifatida e'tirof etish lozim.

Asliyatdagi 2 ta olmoshni tarjimada 1 ta olmosh bilan tarjima qilish.

O'zbek tili olmoshlarga boy til. To'g'ri, nemis tilida ham olmoshlar bor. Ammo nemis tilida anchagina lo'ndalik, konkretlik, aniqlik mujassam. O'zbek tilida esa abstraklash ustunlik qilishini bilamiz. Abdula Qahhor o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanshda o'z salaflariga nisbatan anchagina ilg'orlab ketganligi sir emas. Ayni paytda uning uslubiga xos qischa va lo'ndalikni boshqa ijodkor uslubidan topish qiyinligi ham haqiqat. "Anor" hokoyasida muallif er-xotin mojarosi tasvirida davom etib, asar personajlari tilidan yana navbatdagi olmoshlarni keltiradi:

- **Men** sizga bir narsa **deyapman**mi? Tikib qo'yarman (75-bet).

Mazkur jumladan obira to'la ikkita olmoshni uchratamiz. O'zbek tili qoidalaridan kelib chiqqan holda muallif **men** – alohida birinchi shaxs birlikdagi olmoshni hamda deyapman so'zi tarkibida kelgan – **man** olmoshini keltiradi. Bu tabiiy. Endi buning nemischa tarjimasiga e'tibor qarataylik:

- „habe **ich** etwas gesagt oder verweigert? Ich werde den Mantel schon nähén“ , sagte sie (S. 12).

Ma'nosi:

“Sizga biror narsa dedimmi yoki yo'q deb aytdimmi?” Men paltoyingizni tikib qo'yarman” dedi xotini.

E'tibor berilgan bo'lsa, asliyatdagi *men* tarjimada *ich* bilan o'girilgan. Ayni paytda nemis tili o'tgan zamoni (perfekt) qoidalaridan kelib chiqqan holda originalda

demoq fe'lini nemis tiliga *gesagt* – *aytilgan tarzida* ifodalangan. SHaklan tarjimada faqat 1ta olmosh keltirilgan xolos. Bu ham to'g'ri. CHunki nemis tili grammatikasining tabiati shunday. Ammo asliyatdagi *yaktak* realiyasini nemis tilida *Mantel - palto* bilan berish unchalik to'g'ri emas. Bunga maxsus izoh berish kerak edi.

3.2. Ko'rsatish va inkor olmoshlari tarjimasi.

Ko'rsatish olmoshini tarjimada tushurib qoldirish.

“Anor” hikoyasida yuqorida aytib o'tilganidek, ko'rsatish olmoshlaridan ham faol foydalanilgan. O'zbek tilining go'zalligini ko'rsatuvchi bu lisoniy vositalar haqiqatdan ham asarga o'ziga xos bir joziba bag'ishlaydi. Muallif bunday so'zlardan personajlar individual o'ziga xosligini tasvirlash hamda qahramonning kitobxon ko'z o'ngida jonli tarzda ifodalash uchun foydalanadi. Quyida Turobjonning g'o'ldirashi xotiniga qanday ta'sir qilishini ko'rsatish uchun muallif quyidagi manzarani beradi:

- Turobjonning bu so'zlari xotining qulog'iga notayin bir g'o'ldirash bo'lib kirar edi (74-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Turobjon sprach mit versöhnlicher Stimme, aber seine Frau hörte ihn nicht (S.10).

Ma'nosi:

Turobjon kelishuvchanlik ovozi bilan gapirdi, ammo xotini bunga quloq qolmadi.

Asliyatda Abdulla Qahhor hikoya qahramoni aytgan so'zlarga nisbatan *bu so'zlari* kalimasida ko'rsatish olmoshini ishlatadi. Ammo, nemischa tarjimada ko'rsatish olmoshi tushurib qoldirilgan. CHunki tarjimon Turobjonning g'o'ldirashini uning murosasozlik ovozi bilan gapirishiga almashtirgan.

Ko'rsatish olmoshini tarjimada kishilik olmoshi bilan ifodalash.

Hikoyada qo'llanilgan ayrim ko'rsatish olmoshlari tarjimada kishilik olmoshlari bilan ifodalangan o'rinlar ham bor. Jumladan, yuqoridagi holatning davomiga e'tibor qarataylik:

- Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo'lib kelayotir, nazarida, **bu** bilan **shu** uch yildan beri g'o'ldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo **bu kun**, nima bo'ldi-yu, uch so'zni ravshanroq aytdi: "jigarlaring ezilib ketsin", dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan-bir orzusi – anor edi, birdaniga ikkinchi ham yo'qqa chiqdi (74-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Genauer gesagt, sie hatte schon alles gehört, den Sinn der Rede wollte sie jedoch nicht verstehen, sie vernahm die Worte ihres Mannes als unzufriedenes Brummen. Seit der Heirat mit Turobschon waren drei Jahre vergangen. Seitdem brummte **er** immer vor sich hin und es war nicht einfach, ihn zu verstehen. Aber überraschenderweise hatte er heute sechs Worte ganz klar ausgesprochen: „Soll es dir das Innere verbrennen!“ Ihr einziger Wunsch war es, einen Granatapfel zu essen, und ihr Mann, der die einzige Stütze in ihrem Leben war, war nicht imstande, ihr diesen kleinen Wunsch zu erfüllen.

Ma'nosi:

Aniqrog'ini aytganda, u allaqachon hammasini eshitib bo'lgan, ortiq uning gaplari qulog'iga kirmay, faqat erining so'zlari qayg'u keltiradigan g'o'ldirashdan boshqa narsa emasdi. Uning Turobjon bilan turmush qilganiga uch yil bo'libdi. SHu o'tgan vaqt mobaynida **u** hamon g'o'ldirardiki, buni tushunish oson emasdi. Biroq baxtga qarshi u bugun oltita so'zni aniq qilib talaffuz qilganligini biladi: "Sening iching ezilib ketsin!" Uning haytidagi birgina orzusi anor eyish, yagona suyanchig'i esa uning eri edi. Erining esa ana shu kichkina orzusining ushalishiga imkoni etmasdi.

Tarjimon asliyatdagi 3 soʻzning oʻrniga 6 soʻz degan variantni keltirib toʻgʻri qilgan. CHunki asliyatdagi 3 soʻzdan ibora boʻlgan “Jigaring ezilib ketsin!” nemischa tarjimada haqiqatdan ham 6ta soʻzdan iborat „Soll es dir das Innere verbrennen!“ ga aylanganligi ham toʻgʻri.

Koʻrsatish olmoshlarining juft soʻzlar tarkibida kelishi va ularning nemischa tarjimasi.

Oʻzbek tilida koʻrsatish olmoshlar nafaqat ibora va soʻz birikmalari, balki juft soʻzlar tarkibida ham keladilar. “Anor” hikoyasi nihoyasida eriga qattiq gapirganidan pushaymon boʻlgan xotini ich-ichidan pushaymon boʻlib qigʻlaganidan keyin, tashqariga chiqib, atrofga qaragan holatini tasvirlar ekan, Ablulla Qahhor quyidagi tasvirni keltiradi:

- Koʻcha eshigini ochib **u yoq – bu yoqqa qaradi** – jimjit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltirar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi (76-bet).

Nemischa tarjimasi:

- Sie ging durch die Pforte hinaus und betrachtete die Straße – eine übliche stille Nacht. Die Teestuben waren bereits geschlossen. Nur irgendwo schimmerte eine kleine Flamme. Sie ging ins Haus zurück (S.13).

Maʼnosi:

- U darvozadan tashqariga chiqdi va **koʻchaga qaradi** – sokin tun. CHoyxonalar allaqachon yopilgan. Faqat qaerdadir miltillab bir olov shulasi koʻrinadi. U uyga qaytib kirdi.

Eʼtibor berilgan boʻlsa, ayliyatdagi **u yoq – bu yoqqa qaradi** birikmasi tarkibidagi kelgan u va bu koʻrsatish olmoshlari nemischa tarjimada tushurib qoldirilgan. Buni toʻgʻri tushunish kerak. CHunki, bu oʻrinda tarjimon *betrachtete die Straße* -u koʻchaga

qaradi varianti bilan almashtirgan. Demak, bunday holatlarda ham asliyatdagi olmoshni aynan o'girishning iloji yo'q. SHu bois, faqat boshqa muqobil varintlardan foydalanishga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Inkor olmoshlarini barqaror birikma bilan tarjima qilish.

Abdulla Qahhornnig "O'g'ri" hikoyasi Qobil boboning hukizi yo'qolishi bilan boshlanadi. Tong saharda xamir qilgani turgan kampir og'ilxonaga kirib, hukiz yo'qligini aytib dod soladi. Qo'ni qo'shnilar to'planadi. YAqin hovlida turadigan ellik boshi og'ilxonaga kirib, uning usiunlarini ushlab ko'rib, quyidagilarni aytadi:

- Ho'kizing *hech qayoqqa ketmaydi*, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. CHol yig'lab yubordi (77-bet).

Nemischa tarjimasi:

- "*Dein Ochse ist nicht futsch, es wird gefunden!*"

Seine Untersuchung des Stalls weckte bei dem Alten Hoffnung, seine Worte erfreuten ihn dermaßen, dass er anfang zu heulen.

Ma'nosi:

- "Xo'kizing yo'qolib ketmaydi, u topiladi"

Uning o'g'irlikni taftish qilishi qariyada umid uyg'otdi, so'zlariga xursand bo'lganidan uli solib yig'lay boshladi.

Asliyatdagi *Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydida* qo'llanilgan inkor olmoshini nemis tiliga *Dein Ochse ist nicht futsch – ho'kizing qo'qolib ketmaydi* tarzida o'girilgan. Bu nemis tilidagi *futsch sein – yo'qolib qolmoq* deb ataladigan ibora bilan almashtirilgan. Demak, bu ham o'zbek tilidagi olmoshlarni tarjima qilishning o'ziga xos

bir usuli bo'lishi mumkin ekan. Bunldan tashqari, yuqoridagi parchadan yana bir olmosh tarjimasi mavjud. Asliyatda ellikboshi tilidan muallif Qobil boboning xo'kizi hech qayoqqa yo'qolib ketmasligini ta'kidlar ekan, unga nisbatan yana, *topiladi*, - deydi. Buni nemis tiliga Oybek Ostonsov *es wird gefunden (u topiladi)* tarzida tarjima qiladi. Demak, bu o'rinda tarjimon shaxsi noma'lum olmosh bilan o'giranligini ko'ramiz. Bu ham o'ziga xos bir usul.

Xulosalar

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida qo’llanilgan qirqqa yaqin omoshlarning nemischa tarjimalari bilan qiyoslanganda ularni tarjima qilish usullari to’g’risida quyidagi tamoyillar mavjudligini ko’rishimiz mumkin:

1. Atoqli ot tarjimada kishilik olmoshi bilan o’girish;
2. O’zbekcha qaratgich kelishida turgan olmoshni nemischaga uchinchi shaxs, bosh kelishikda turgan olmosh bilan tarjima qilish;
3. Jo’nalish kelishidagi kishilik olmoshni tarjimada ham jo’nalish kelishigidagi olmosh bilan o’girish;
4. Frazologik birikma tarkibida kelgan kishilik olmoshini kishilik olmosh bilan tarjima qilish;
5. O’zbek tilidagi jins kategoriyasiz kelgan olmoshni tarjima jins kategoriyasiga ega bo’lgan olmosh bilan o’girish;
6. Ko’rsatish olmoshini tarjimada ko’rsatish olmoshining muqobil varinti bilan ifodalash;
7. O’zbek tilidagi ko’rsatish olmoshini nemischa tarjimada tushurib qoldirish;
8. O’zbek tilidagi ko’rsatish olmoshini nemis tiliga tarjimada kishilik olmoshi bilan ifodalash;
9. Asliyatdagi otni olmosh bilan tarjima qilish.
10. Inkor olmoshlarini barqaror birikma bilan tarjima qilish.

Адабиётлар рўйхати:

1. Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2014.
2. Abdulla Kahhor. Der Granatapfel. – Tashkent: Akademnashr, 2013.
3. G’afur G’ulom. Shum Bola. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi. 2014.,160 b.
4. Ўткир Ҳошимов. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Мехриус. 272 б.
5. Utkir Hashimov. Kein Himmel aus dem Erden. Aus dem Usbekischen von Oybek Ostanov. - Taschkent: Akademhashr. 2014, 304 S.
6. Файзуллаева Раъно. Художественный перевод и национальный колорит. – Ташкент: Фан, 1972.
7. Wahrig. Groesswoerterbuch Deutsch als Fremdsprache.- Munchen: Wissen Media Verlag, 2008.
8. Узбекско-русский словарь. А.К.Боровков бош муҳаррирлиги остида нашр этилган. – Москва: Хорижий ва миллий луғатлар бош нашриёти, 1959. Б. 580
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5- жилд. – Тошкент: Ўзбек Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.2008, Б. 102
- 10.Gafur Gulom. Der Schelm. Uebersetzung von O.Ostanov und A. Azizov. – Taschkent: Akademhashr. 2014, 224 S.
- 11.G’afur G’ulom. Shum Bola. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi. 2014.,160 b.
- 12.Саломов Ғайбулла. Тил ва таржима – Тошкент: Фан, 325 б.
13. Salomov G’. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O’qituvchi, 1983 . - 220 b.
14. Salomov G’. Adabiy an’ana va badiiy tarjima.- Toshkent: Fan, 1980. - 158 b.
15. Salomov G’. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. - 190 b.
16. Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 280b.

17. Salomov G'., Umirov S.. Tolibnoma – Toshkent: SHarq, 1996.
18. Salomov G'., Nazarov B. SHekspir ijodi bilan yuzma-yuz. // “Vilyam SHekspir. Otello”. kitobida. — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti., 1991. – B.9.
19. Salomov G'., N.Komilov. Do’stlik ko’priklari. - T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 221 b.
20. Salomov G'., Karomatov H. “Sohibqiron Tumur” fojeasining sarchashmalari va adabiyotlararo jarayon / Tarjima muammolari. maqolalar to’plami. - Toshkent: Fan, 1991, - B. 7-21.
21. Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojib «Qutadg’u bilig” asarining olmoncha ilmiy-adabiy talqinlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1994. – 20 b.
22. Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojibning til bilish va tarjimaga munosabati // Til va adabiyot ta’limi. - Toshkent, 2000. - № 1. - B. 43-47.
23. Sodiqov Z. So’z ma’nosi // Tafakkur. – Toshkent, 2000 - № 3. - B.116-118.
24. Sodiqov Z. “Qutadg’u bilig”dagi frazeologizmlarning olmon tiliga tarjimasi // O’zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. - № 2. - B. 57-60.
25. Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojib va Imom Al G’azzoliy // SHarq yulduzi. – Toshkent, 2006. - № 3. - B. 150-154.
26. Tarjima san’ati // Maqolalar to’plami. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1975-1986.
27. Tarjimon mahorati / Salomov G'., Komilov N., Salimova Z., Jo’raev K., Otajonov N. - Toshkent: Fan, 1979. - 194 b.
28. Fayzullaeva Ra’no. Badiiy tarjimada milliy xoslikni ifodalash muammosiga doir: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1972. - 21 s.
29. Fedorov A.V. Vvedenie v teoriyu perevoda. (Lingvisticheskie problemi). – Moskva: Literatura na inostrannom yazike, 1958. - 282 s.
30. Fedorov A.V. Osnovi obshchey teorii perevoda. - Moskva: Prosveshchenie, 1983. - 290 s.

31. Erich und Hildegard Bulitta. Woerterbuch der Synonyme und Antonyme.
Muenchen: Fischer Verlag. S. 362